



ISSUES OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION IN THE PROCESS OF TRANSITION TO A SOCIALLY ORIENTED MARKET ECONOMY

Farhod Ochilov

c.h.s., associate professor

Inspector General of the Kashkadarya Region branch of the Civil Service Development Agency under the president of the Republic of Uzbekistan

Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: social protection, market economy, social institutions, reforms, pension, social help, population.

Received: 28.10.24

Accepted: 30.10.24

Published: 01.11.24

Abstract: Strong social protection of the population during the years of independence has become the main, priority of state policy. This article highlights the issues of social protection of the population and the peculiarities of state policy in this regard in the process of transition to a market economy.

IJTIMOYIY YO‘NALTIRILGAN BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISH JARAYONIDA AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH MASALALARI

Farhod Ochilov

t.f.n., dotsent

O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish Agentligi Qashqadaryo viloyati filiali bosh inspektori

O‘zbekiston, Qarshi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy institutlar, islohotlar, pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, aholi.

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining bosh, ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash masalalari va bu borada davlat siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕХОДА К СОЦИАЛЬНО ОРИЕНТИРОВАННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Фарход Очиллов

к.и.н., доцент

Генеральный инспектор Кашкадарьинского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан

Узбекистан, Карши

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: социальная защита, рыночная экономика, социальные институты, реформы, пенсия, пенсия, социальная помощь, население.

Аннотация: В годы независимости сильная социальная защита населения стала главным, приоритетным направлением государственной политики. В данной статье освещаются вопросы социальной защиты населения в процессе перехода к рыночной экономике и особенности государственной политики в этом отношении.

KIRISH

O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan barcha islohotlardan ko‘zlangan yagona maqsad fuqarolarga normal turmush tarzini yaratib berish, aholining kam ta‘minlangan, muhtoj qismini muttasil ravishda iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘ldi.

Fuqarolikni ijtimoiy himoyalash, eng avvalo, huquqiy jihatdan ta‘minlandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas”, deyiladi[1]. Konstitutsiyaning 45-moddasida esa “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir”, deb ta‘kidlanadi[2].

ASOSIY QISM

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda har bir yilning ma‘lum nom bilan atalishi ham O‘zbekiston Respublikasi, fuqarolar oldida turgan muammolarni hal etishda muayyan ahamiyat kasb etdi. “Inson manfaatlari yili” (1997), “Oila yili” (1998), “Ayollar yili” (1999), “Sog‘lom avlod yili” (2000), “Onalar va bolalar yili” (2001), “Qariyalarni qadrlash yili”, (2002), “Obod mahalla yili” (2003), “Mehr-muruvvat yili” (2004), “Sihat-salomatlik yili” (2005), “Homiylar va shifokorlar yili” (2006), “Ijtimoiy himoya yili” (2007), “Yoshlar yili” (2008), “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” (2009), “Barkamol avlod yili” (2010), “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” (2011), “Mustahkam oila yili” (2012), “Obod turmush yili” (2013), “Sog‘lom bola yili” (2014), “Keksalarni eъzozlash yili” (2015), “Sog‘lom ona va bola yili” (2016), “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” (2017), “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab- quvvatlash yili” (2018), “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” (2019), “Ilm ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” (2020) deb e‘lon qilingan har bir yil o‘z mazmun-mohiyati bilan eng avvalo inson, uning manfaatlarini himoya qilish, unga munosib turmush sharoitini yaratish maqsadiga yo‘naltirildi.

Har bir yil o'zining mukammal darajada ishlab chiqilgan Dasturiga ega bo'lib, ularda davlat g'amxo'rliqi o'z ifodasini topgan. Birgina 2017 yilda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilgan eng muhim maqtovg'a arzigulik ishlardan biri shuki, xalqimizni eng arzon barcha shart-sharoitlarga ega uy-joy bilan ta'minlashning yangi mexanizmi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilganidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev, bu xaqda gapirib, "Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, biz keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurishni boshladik. 2017 yilning o'zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar foydalanishga topshirildi", degan edi[3].

2012-2016 yillarda Surxondaryo viloyatida esa na'munaviy loyihalar asosida 178 ta massivda 5 ming 800 ga yaqin uy-joy barpo etilganini ta'kidlash o'rinlidir[4]. Yuqoridagi so'zlardan kelib chiqib shuni alohida qayd etish lozimki, bunday ezgu ishlarning zamirida avvalo inson manfaati va uning baxtli hayotini ta'minlash maqsadi mujassamdir.

Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini muhofaza etish juda zarur edi. Bunga sovet davrida, ayniqsa, XX asrning 70-80 yillarida shakllangan iqtisodiy siyosat, turli "eksperiment"lar, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik uslublari, direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlarini o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. 70-80 yillarda rejalashtirish va xo'jalik tizimini isloh qilish (1979, 1987 yillar), 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan "qayta qurish", iqtisodiyotdagi ziddiyatlar, partiyaviy yakkahokimlik, ekstensiv rivojlanish imkoniyatlarining ado bo'lishi, samarasiz xo'jalik mexanizmi bunday holatlarning barchasi O'zbekistonda iqtisodiy inqirozning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Mamlakat birinchi Prezidenti I.Karimov "qayta qurish" davrida siyosatdagi kuchli buzilishlarni "aventyuradan iborat eksperimentlar", deb atadi.

Aniq maqsadga va ilmiy jihatdan asoslangan konsepsiyaga ega bo'lmagan turli "chora-tadbirlar", xususan, "100 kun", "500 kunlik o'tish davriga mos noilmiy va normal "konsepsiyalar" Sovet davrida shakllangan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yanada keskinlashtirib yubordi. "Natijada, - deydi I.Karimov, - iqtisodiyotni batamom izdan chiqarib, moddiy va ma'naviy mablag'lar taqchilligining dahshatli tarzda o'sishiga, tashqi qarzning ko'payishiga olib keldi. Eng asosiysi shu bo'ldiki, mehnatni rag'batlantirish tizimi buzildi. Bu esa odamlarning ijtimoiy ruhiyati salbiy o'zgarishiga olib keldi. Tayyorgarlik, boqimandalik kayfiyatlarini keltirib chiqardi. Markazdan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari xo'jalik yuritish uslub va usullari iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga sezilarli turtki bo'lishiga, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon bo'lib qoldi"[5].

Haqiqatan ham, sobiq SSSR parchalanib ketishi arafasida O'zbekistonda ijtimoiy muammolar haddan ziyod keskinlashib ketdi. Narx-navoning ortishi, qashshoqlanishning

kuchayishi, oziq-ovqat mahsulotlarida taqchillikning kelishi, kishilar ruhiy-ijtimoiy holati, kayfiyatidagi tushkunlik - bunday holatlarning barchasi O‘zbekiston hukumatidan mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mazkur muammolarni zudlik bilan hal etishni talab qilardi.

Ayni paytda ushbu muammolarni bozor munosabatlariga o‘tish bilan uyg‘unlikda hal etish lozim edi. “Bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin, degan edi I.Karimov o‘zining 1992 yilda nashr etilgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida, insonlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlari amalga oshirilmog‘i lozim. Davlat o‘z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. Davlat kishilarga, ayniqsa yordamga muhtoj bo‘lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, yetimlar, bolalar, o‘quvchilar, nafaqaxurlar va nogironlar, yolg‘iz onalar, ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatishi kerak”[6].

Qayd etish lozimki, masalaning shu taxlitda qo‘yilishi O‘zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash konsepsiyasiga quyilgan ilk zamin edi. Shu bilan birga mustaqillikning dastlabki davrida bajarilishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjud edi va ularning aksariyati fuqarolardagi ruhiy-tafakkuriy holat, kechinmalar bilan bog‘liq edi.

Birinchiidan, kishilar ijtimoiy ongiga aylangan boqimandalik kayfiyatini bartaraf etish lozim edi. Buning uchun, avvalo, insondagi barcha muammolarni hal etadigan omil, “bizni boquvchi”, muammolarni hal etish kafolati davlat, degan ruhiy kayfiyatdan qutilish lozim edi.

Ikkinchiidan, sovet davlat “mazmun-mohiyatini” tashkil etgan holat - “sozializm kambag‘allar davlati”, degan kayfiyatdan holi bo‘lish lozim edi. Kambag‘allikdan faxrlanish, g‘ururlanish qashshoqlikka olib boradigan yul edi. Shu asnoda sozializmga xos bo‘lgan “bir tekischilik” ruhiyatini zudlik bilan bartaraf etish lozim edi.

Uchinchiidan, odamlarda o‘ziga ishonch hosil qilish muhim edi. Buning uchun ularda tashabbus, ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirish, ertangi kunning kafolati va ijodkori aynan “shu insonning” o‘zi ekanligi to‘g‘risidagi tushunchaning paydo bo‘lishiga erishish lozim edi.

To‘rtinchiidan, kishilarda sog‘lom extiyojni shakllantirish, bu extiyojlarni qondirishda shaxsning o‘zi asosiy omil ekanligi to‘g‘risida mutlaq fikrga kelish muhim edi. Ya‘ni, shu kunning o‘zidan, mavjud imkoniyatdan qoniqish sog‘lom ehtiyojning shakllanishiga xalaqit qilishini anglash juda zarur edi.

Sobiq SSSR parchalanishi va mustaqillikning ilk yillarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng muhim masalalar, nazarimizda, yuqorida ta‘kidlangan holatlar edi. Sobiq sozialistik tuzumning asl mazmun mohiyatini anglamasdan, O‘zbekistonda qurilishi lozim bo‘lgan yangi jamiyat to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lmasdan bunday davlatni barpo etish mumkin emas edi.

Shuning uchun ham O‘zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, birinchiidan, fuqarolarning mazkur masalalarga munosabatini o‘zgartirishga, ikkinchiidan, o‘tish davrining qiyinchiliklari sharoitida ularga munosib turmush tarzi yaratib berishga harakat qildi.

Eng avvalo, fuqarolarning yoppasiga qashshoqlanishining oldini olish lozim edi. Buning uchun esa mavjud ijtimoiy muammolarni, aholining kam ta'minlangan va nochor qismini ijtimoiy himoyalash muammolarini hal etish lozim edi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish-davlatning aholiga munosib hayot faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati asosan quyidagi qoidalarga asoslanadi:

-birinchidan, O'zbekiston Respublikasining barcha ijtimoiy-demografik guruhlarini (bolalar, yoshlar, ishlaydigan fuqarolar, nogironlar, keksalar va mehnatga yaroqsizlar, qaramoqda yashovchi shaxslar) huquq va ehtiyojlarini hayotning barcha sohasida himoya qilish;

-ikkinchidan, aholining moliyaviy ta'minlash manbalari va ijtimoiy himoyalash mexanizmiga muvofiq tarzda tabaqalab yondashishni ta'minlash;

-uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati aholining iqtisodiy jihatdan faol, mehnatga yaroqli guruhiga, avvalo, shaxsiy mehnat jamg'armalarini oshirish va mehnat faolliklarining o'sib borishi asosida o'zlarining moddiy boyliklari oshib borishidan kelib chiqishi va amalga oshirilishi lozim edi[7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, ijtimoiy himoya davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va huquqiy kafolatlar yig'indisini tashkil etadi. Respublikada, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi toifalari ham belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: nogironlar, faxriylar, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlanganlar, yetimlar, muxtoj kimsalar, yolg'iz qariyalar, pensionerlar, yosh bolali onalar. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday toifadagi fuqarolar har doim ham har kanday jamiyatda ham ijtimoiy ta'minotga muhtojlik sezadilar.

Bulardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaning tarkibiy kislari shakllangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

-mehnatga layoqatlilar uchun ish joylari tashkil etish (ishsizlikdan muhofaza qilish);

-mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy zaif guruhlarini nafaqalar bilan ta'minlash;

-mehnat faoliyatidan olingan daromad yoki nafaqa asosida munosib turmush darajasini ta'minlash (bu asosiy moddiy boyliklar, eng avvalo, oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli ham kiritiladi);

-turar-joy, madaniy-maishiy, sog'liqni saqlash xizmatlarini minimal me'yorda ta'minlash;

-zamonaviy malakali ishchi kuchini shakllantirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumot olish kabilar[8].

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti keskin va o'ta jiddiy raqobatli jarayon hisoblanadi. Bunday o'tish davrida iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik, pulning qadrsizlanishni ko'pgina korxonalarining

yopilishi, ishbilarmonlarning kasodga uchrashi, hattoki xonavayron bo'lishi, aholi turmush daraja bo'yicha tabaqalanishning kuchayishi muqarrardir. Bu davrda siyosiy va iqtisodiy jinoyatchilik ortadi, chunki o'tmishda yuqoridan berilgan ko'rsatmalar va davlat tomonidan ajratilgan mablag'ga ishlatilgan bo'lsa, endi erkin bozorning shafqatsiz va xolis talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mahsulot yaratish kerak, bunga esa ko'plar o'rganmagan.

Bularning barchasi mustaqillikning dastlabki yillarida ma'lum ma'noda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan bozor munosabatlari sharoitida mehnat qilib, daromad ko'rish imkoniyatiga hamma xam ega bulavermaydi. Qolaversa, aholining mehnat yoshiga yetmagan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan toifalari ham mavjud. Aholining bunday qatlamlariga mansub qismini ijtimoiy himoya qilishga zarurat tug'iladi. Bu vazifani davlat va turli ijtimoiy tashkilotlar bajaradi. O'zbekiston Respublikasida bozor islohotlarining dastlabki yillaridanoq davlat o'z oldiga kuchli va ta'sirchan siyosat yuritish vazifasini qo'ydi.

Bunday siyosatni yuritishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat edi:

bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tovarlarning narxi doimiy ravishda oshib, bu aholining turmushi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Davlat hayotiy zarur mahsulotlarning ma'lum guruhiga qat'iy narx orqali turmush darajasi pasayishining oldini oldi.

– O'zbekiston aholisi tarkibida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lmaganlarni ulushi yuqori hisoblanadi va ular doimiy ravishda davlatning moddiy yordamiga extiyoj sezadi;

– islohotlar davrida yangi, bozor sharoitlariga moslasha olmasdan ba'zi korxonalar ish faoliyatini to'xtatadi yoki samarasiz ishlayotgan korxonalar faoliyatiga barham beriladi. Bu ushbu korxonalar ishchi va xizmatchilarning ishsiz qolishiga olib keladi. Natijada, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash zarurati vujudga kelishi tabiiy.

O'rganilgan davrda O'zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati amalda asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ldi va olib borildi: ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot[9].

Ijtimoiy himoya-mustaqillikning moddiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash va bozor islohotlarini amaldagi davrida O'zbekiston aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilish, milliy xo'jalikda amal qiladigan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy xatto, siyosiy chora - tadbirlar yig'indisi bo'lib, xususan, aholining yoshi, salomatligi, ijtimoiy holati hamda hayot kechirishning zarur vositalariga ega bo'lmaganligi sababli yordamga muhtoj qatlamiga davlat va jamoat tashkilotlari va jamg'armalarining yordami hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minotning asosiy maqsadi esa turmush darajasini to'xtovsiz oshirib borish, qashshoqlikning oldini olish, aholi turli qatamari o'rtasidagi ta'lim olish, madaniyat va san'at yutuqlaridan foydalanish kasb malakasini oshirish va daromadlarni ta'minlash jihatidan tafovutlarni kamaytirish, inson taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlab borishdan iborat"[10].

Mustaqillik yillarida ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot siyosati o'zining ijobiy jihatlarini ko'rsatdi. Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, keskin tabaqalanishga to'siq qo'yish imkoniyatiga ega bo'lindi. Shuningdek, eng kam ish haqqi - pensiyadardan soliq olinmaydigan bo'lindi, zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish muassasalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi xarajatlaridan bir qismi byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib turildi. Eng muhimi mamlakatda keng iste'mol mollari va xizmatlarning ko'pgina qismi bo'yicha narxlardagi tafovutlarning o'rni qoplandi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida davlatimiz tomonidan olib borilgan kuchli ijtimoiy himoya tizimi jamiyat barqarorligin ta'minlaydigan kuchli omilga aylandi. "Eng avvalo, - deb ta'kidlagan edi I.Karimov bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida - yurtimiz hayotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, yetim-yesir va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etish bo'yicha qilgan ishlarimizni ta'kidlash joiz[11].

Mazkur strategik maqsad - aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati, eng avvalo, davlat tomonidan moddiy - iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Davlat byudjetining sosial soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy xarajatlari 2006 yilda 51 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilda 54,1 foizga yetdi. Kam ta'minlangan, yosh bolali oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar uchun muljallangan xarajatlar miqdori esa 2007 yil byudjetida 7 foizni tashkil etdi[12].

Respublikada mustaqillik yillari arafasidagi ahvoli og'ir va tahlikali edi. Ayniqsa mamlakatning janubi - Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bu boradagi muammolar yanada keskinlashgan va o'tkir edi.

To'g'ri, uzoq ming yillik tarixga ega ushbu viloyatlar o'zining ko'hna tarixi, betakror tabiiy-jug'rofiy muhitiga, o'ziga xos tarzdagi xo'jalik yuritish tizimiga, annalariga ega edi. Eng muhimi, bu viloyatlar tabiiy boyliklarga boy edi. Masalan, Surxondaryo viloyatida Xavdaq, Kokaydi, Lalmikorda neft va gaz qazib chiqariladi. O'zbekistonda 3 ta yirik ko'mir konining 2 tasi Surxondaryodadir. Bular Sharg'un va Boysun ko'mir konlaridir. Viloyatda, shuningdek, polimetall, osh tuzi konlari, gips, granit, argolit kabi qurilish materiallari konlari bor.

Sanoatda paxta xomashyosi va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlar yetakchilik qilmoqda. Viloyatda "Jarqo'rg'onneft" boshqarmasi, Denov yog'-ekstraksiya zavodi, Sho'rchi un kombinati, Sharg'un ko'mir sanoati, Xo'jaikon tuz koni korxonalari, Sherobod keramika badiiy buyumlar zavodi kabi yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda[13].

Qashqadaryo viloyatida esa eng rivojlangan tarmoq tabiiy gazni qazib olish va qayta ishlash, paxta tozalash, ekstraksiya sanoati, qurilish materiallari, tikuvchilik, oziq-ovqat sanoatidir. Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Shoʻrtan gaz-kimyoy birlashmasi, Koson yogʻ-ekstraksiya zavodi, Shahrisabz konserva zavodi, Shahrisabz pillachilik kombinati, Qarshi tikuvchilik fabrikasi va boshqalardir. Viloyat Oʻzbekistonda yetishtiriladigan qishloq xoʻjaligi yalpi mahsulotining 10,2 foizini beradi. Chorvachilik goʻsht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Togʻ yaylovlarida yilqichilik va qoʻychilik rivojlangan. Viloyatda koʻplab fermer xoʻjaliklari, kichik va oʻrta biznes faoliyat koʻrsatadi[14].

Oʻzbekiston Respublikasining janubiy hududlarida joylashgan ushbu viloyatlar oʻzining boy tabiiy qazilmalari, mehnatkash aholisiga ega boʻlsa-da, SSSRning parchalanishi arafasida Oʻzbekistondagi boshqa viloyatlar aholisiga nisbatan maʼlum darajada turmush darajasi past edi. Bunga misollar koʻp edi. Masalan, ushbu viloyatlar asosan qishloq xoʻjaligiga asoslangan, zamonaviy sanoat ishlab chiqarish darajasi va hajmi juda past edi.

1989 yilgi maʼlumotlarga koʻra, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida aholisi 50 mingdan koʻp boʻlgan 3 ta (Qarshi, Termiz va Shahrisabz) gina shaharlar bor edi, xolos. Umuman, shahar aholisi Qashqadaryo viloyatidagi umumiy aholining 26 foizini, Surxondaryo viloyatida esa atigi 19,5 foizni tashkil etgan, xolos. Bu raqam Respublikadagi eng past koʻrsatkichlar edi, zero Toshkent viloyatida bu 44,4 ni, Namangan viloyatida 37,3 ni, Buxoro viloyatida 34,8 foizni tashkil etar edi. Oʻzbekiston boʻyicha esa mazkur raqam 40,7 foizni tashkil etardi[15].

Bu esa mazkur viloyatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga ham oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatmasdan qolmadi. Masalan, 1989 yilning birinchi choragida Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan kooperativ xoʻjaliklarida jami 5,7 mln. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan boʻlsa, Surxondaryo viloyatida uning hajmi 2,6 mln. soʻmga yetdi, xolos. Bu - respublikadagi eng past koʻrsatkich edi[16]. Ushbu viloyatlarda aholining yakka tartibdagi mehnat faoliyatini tashkil etish boʻyicha (qator hunarmandchilik, maishiy soha, ijtimoiy-madaniy soha, xalq amaliy sanʼati sohasi) koʻrsatkichlari ham juda past edi. Jumladan, yuqorida nomlari keltirilgan sohalar boʻyicha Qashqadaryoda jami 1,4 ming kishi mehnat qilgan boʻlsa, Surxondaryoda bu raqam 500 kishini tashkil etgan, xolos. Bunday koʻrsatkichlarni aholining deyarli barcha faoliyat turlarida koʻrish mumkin edi.

Tabiiyki, bunday hol aholining ijtimoiy muammolarini tobora keskinlashtirib bordi. Ayniqsa axolini uy-joy bilan taʼminlash, ularga tabiiy, madaniy yordam koʻrsatish darajasi ham oʻta past edi. Masalan, qishloq joylarda har bir kishiga uy-joy bilan taʼminlanish darajasi Qorakalpogʻiston Respublikasida 15,5 ni, Xorazm viloyatida 14,4 ni, Samarqand viloyatida 12 kvadrat metrni tashkil etgan holda bu raqam Qashqadaryo viloyatida eng past - 9,4 kvadrat metrdan iborat boʻldi[17].

XULOSA

Aholining ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadigan tibbiy xizmat sohasida ham Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida katta muammolar mavjud edi. Vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, shifoxonalar, poliklinikalar holati o‘ta achinarli holatda bo‘lib, ular uzoq un yillar davomida ta‘miratlanmadi. Bunday tibbiy muassasalarni malakali shifokorlar bilan ta‘minlash ham qoniqarsiz holatda edi. Tibbiy muassasalar binolarining eskiligi, ulardagi uskunalar, tibbiyot ashyolarining ma‘naviy jihatdan eskirganligi, moddiy-texnika bazasining haddan tashqari qashshoqligi oqibatida tibbiyot bilim dargohlarini bitirib kelgan yoshlarning aksariyat qismi ishdan bo‘shashi va boshqa joylarga ish qidirib ketishiga sabab bo‘ldi.

Natijada, aholini tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlash darajasi uzoq yillar davomida ko‘tarilmadi. 1989 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha har 10 ta viloyati ko‘rsatkichi eng past darajada bo‘lib, u 86,3 nafar kishini tashkil etdi[18].

Yuqorida keltirilgan misollarning o‘zi ham O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida mustaqillik arafasida ijtimoiy-iktisodiy ahvol, aholining ijtimoiy muhofazasini ta‘minlashdagi holati o‘ta murakkab ekanligidan dalolat beradi. Sovet davrida tashkil etilgan ayrim ijtimoiy-madaniy infratuzilma bu davrga kelib ishdan chiqa boshladi. Odamlar orasida ishsizlik darajasi ortdi, xo‘jalik yuritish mexanizmida jiddiy uzilishlar yuzaga keldi.

Bunday holatni zudlik bilan tuzatish, kishilardagi ijtimoiy tushkunlik kayfiyatini ko‘tarish, ularda ertangi kunga ishonch ruhini hosil qilish lozim edi. Bu – tabiiyki, birdaniga hal bo‘ladigan vazifa emasdi, zero, sovet davrida uzoq un yillar mobaynida shakllangan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy faoliyat parchalana boshlangan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси -Тошкент: Ўзбекистон, 2008 -Б.10.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси -Тошкент: Ўзбекистон, 2008 -Б.10.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрда Олий мажлисга мурожаатномасидан, Сурхон тонги, Термиз: 2017 йил 27 декабрь.
4. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқими билан бирга курашимиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 22.
5. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- Б.76.
6. Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: Ўзбекистон, 1998.- Б.41.
7. Ижтимоий ҳимоя йили Мазмун ва моҳият, -Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.-Б.3.
8. Ижтимоий ҳимоя йили Мазмун ва моҳият, - Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.-Б.32.
9. Ёрматов Ф. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида аҳолининг Ижтимоий ҳимояси

(1991-2017 йиллар), Термиз.-2018.Б.13.

10. Тухлиев Н., Хақбердиев Қ., ва бошқ. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.-Б.260.

11. Каримов И. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштири устувор вазифамиздир.-Тошкент: Ўзбекистон, 2007.-Б.39.

12. Каримов И. Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш- сор вазифамиздир.-Тошкент: Ўзбекистон, 2007.-Б. 40.

13. Ўзбекистон Республикаси. -Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002.- Б. 127.